



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№9 (771), 2024-yil 16-may

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ 19-may – O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni

BAYRAMINGIZ MUBORAK, AZIZ HAMKASBLAR!

Quvondiq SANAQULOV,
"Navoiy kon-metallurgiya
kombinati" AJ
Boshqaruv raisi – Bosh direktori

Aziz hamkasblar, qadri mehnat faxriylari!

Avvalo, siz azizlarni, sizlar orqali o'z hayotini mamlakatimiz kon-metallurgiya sohasi ravnaqiga bag'ishlagan barcha hamkasblarimizni - O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bilan chin qalbidan tabriklayman.

Qizilqum kengliklarining murakkab iqlim sharoiti, butun dunyoda bo'layotgan beqaror iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qaramasdan, barcha sinov va qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tib, yer osti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash bo'yicha oldimizga qo'yilgan rejalarni ortig'i bilan bajarayotganligimiz, bu – chinakam jasorat namunasidir.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan bepoyon Qizilqum bag'ridan qazib olinayotgan, dunyo miqyosida yuksak e'tirof etilayotgan oltin va boshqa qazilma boyliklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda beqiyos strategik ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar kon-metallurgiya sanoati uchun yangi davrni boshlab berdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan kombinatni rivojlantirish dasturlari o'z natijalarini bermog'ga. Bu borada Yurtboshimiz tomonidan tasdiqlangan 2017-2026-yillarda kombinatni strategik rivojlantirish dasturi har jihatdan ahamiyatlidir. Bu dastur asosida amalga oshirilgan ishlar, investitsion loyihalar yangi quvvatlarni ishga tushirish va korxonalarini modernizatsiya qilish, xomashyo bazasini yanada raqobatlasha imkonini berdi, korxonamizda ma'dan qazib olish va qayta ishlash sur'atini oshirib, barqaror rivojlanish muhitini vujudga keltirdi. Quvonarli jihati, ilm, izlanish, mashaqqatli mehnat, kadrlar salohiyati bilan erishilgan bu yutuqlar kombinat tarixida ilgari kuzatilmag'ga eng katta marra bo'ldi. Buning hisobiga kombinat zamonaviy texnika va texnologiyalarga ega, to'la raqamlashtirilgan, yetakchi kompaniyalar bilan bemalol raqobatlasha oladigan korxonaga, sanoat klasteriga aylandi.

Yangi quvvatlar – 5, 6 va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilishi evaziga metallurgiya



sanoatida ma'danni qayta ishlash hajmi 100 million tonnadan oshdi.

Kasb bayrami nishonlanayotgan shukuhli kunlarda dasturlar ijrosi muddatidan ancha ilgari sharafl bilan uddalanayotganligi, bu, kombinatimiz ahil jamoalari matonatli mehnati samarasi ekanligini e'tirof etish hamda fidokorona xizmatlaringiz, yuksak vatanparvarligingiz uchun barchangiz va har biringizga cheksiz minnatdorчилиgimni izhor etish menga alohida baxtiyorlik va mamnuniyat bag'ishlamoqda.

Keyingi bir yilda Nurota tumanidagi "Pistali" koni negizida 6-gidrometallurgiya zavodi va Navoiy mashinasozlik zavodida zamonaviy tegirmonlar ishlab chiqaradigan sex ishga tushirildi. Joriy yilda 3-gidrometallurgiya zavodida yiliga 2 million tonna ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega 2 ta yangi tegirmon bloki barpo etilmoqda. Yangi tegirmon bloklarining ishga tushirilishi korxonada ma'danni qayta ishlash hajmini 10 million tonnaga yetkazish, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishni 12 foizga oshirish imkonini beradi.

Hozirgi shiddatkor zamonda yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish rivojlanib, global raqobat kuchaymoqda. Buning natijasida, har bir sohada innovatsion texnologiyalar-

ga asoslangan yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylanoqda. Ekspertlar fikricha, insoniyat kelajakda foydali qazilmalarning ko'plab turlari, jumladan, strategik xaziralarni to'ldirish muammosining jiddiy kuchayishiga duch kelishi mumkin. Muammolarni muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan ilm va izlanishlar samarasi, ularni ishlab chiqarishga joriy etish darajasiga bog'liq. Bu esa o'z-o'zidan ushbu masalaga innovatsion va zamonaviy yondashuv, ilmiy-tadqiqotlarga zo'r berishni talab etadi. Bu borada kombinat olimu mutaxassislari tinimsiz izlanishlar olib borib, e'tirofga arziqlik natijalarga erishib kelayotganini yaxshi bilasiz.

Kasb bayramini har doimgidek ulkan natijalar bilan qarshi olayapmiz. Joriy yilning o'tgan to'rt oyida qariyb 27 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, belgilangan reja ortig'i bilan bajarildi. Investitsiya dasturi doirasida 254 million dollarlik mablag'lar o'zlashtirilib, mahsulot tannaxmini 812 milliard so'mlikdan ziyodroqqa kamaytirildi. 292,6 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi. Erishilgan bu marrada, hech shubhasiz, ahil jamoamiz har bir vakilining munosib hissasi bor, albatta.

Ma'lumki, O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan strategiyasida kon-metallurgiya sano-

ati korxonalarini oldiga katta vazifalar qo'yilgan. Jumladan, 2030-yilga borib O'zbekistonda yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltinni – 1,5 barobar, kumushni – 3 barobar, uranni – 3 barobar oshirish mo'ljallangan. Shu bois, oldimizda yanada yuksak marralar turibdi. Xabaringiz bor, ayni paytda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2024-2030-yillarda kombinatni barqaror rivojlantirish dasturi ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturda kelgusida kombinat ishlab chiqarish hajmini yana 30 foizga oshirish vazifasi belgilanishi nazarda tutilmoqda. Bu, har birimizdan yanada hamjihatlikda, yuksak mas'uliyat va fidoyilik namunasini ko'rsatib ishlashni talab etadi.

Ishonamanki, jamoamiz bor kuch-g'ayrati, bilim va tajribasini safarbar etib, bu sharafl vazifani ham muvaffaqiyatli bajaradi.

Aziz hamkasblar!

Fursatdan foydalanib, sizlarni yana bir bor qutlug' sana - O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bilan chin qalbidan tabriklayman.

Sizlarga sog'lik-salomatlik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, xonadonlaringizga fayz-baraka tilayman.

■ Yashil makon

QIZILQUM KENGLIKLARIDA

bog'lar, "yashil belbog'"lar kengaymoqda

Iqlim o'zgarishi global muammoga aylanib bormoqda. Bu xavf biz yashab turgan makonni ham cheklangan o'tayotgani yo'q. Uning oldini olish maqsadida, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasi start berildi. Natijada daraxt va buta ko'chatlari ekish, bog'lar barpo etish, yashil maydonlarni kengaytirish, sanoat hududlarini ihotazorlashtirish respublikamizda omamviy harakatga aylandi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasi ham bu tashabbusga javoban ko'chat ekish, bog' yaratish, hududlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, korxonalar va sanoat zonalarini atrofini "yashil belbog'"lar bilan ihotazorlashtirish ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. 2021-2024-yillarda hududlar iqlimiga mos bir million tupdan ortiq manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari o'tqazilib, yangi bog'rog'lar, yashil maydonlar barpo etildi.

Yashil makon, bu – ekologik muhit, inson salomatligi, uzoq umr ko'rish, ke-lajak avlod taqdiri demakdir. Buni birinchi darajali vazifa, deb bilgan kombinat jamosi bu yilgi bahor va kuz mavsumida ishlab chiqarish korxonalarini, konchilar maskanlari hududlariga 460 ming tup mevali, manzarali va buta ko'chatlari ekishni rejalashtirishgan. Erta ko'klam jamoamiz sa'y-harakatlari bilan Qizilqum kengliklarida joylashgan bo'linmalar hududlariga 24,8 ming tup manzarali, 4,7 ming tup mevali, 302,7 ming tup buta ko'chatlari, shuningdek, har xil gul nihollari o'tqazildi. Bu ezgu ishlar buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: "Hamishalig" ta'kid etur edim: xon bo'lsang-da bog' yarat, gadoy bo'lsang-da bogi yarat — bir kunmas-bir kun mevasini tatsiren..." degan da'vatini yodga soladi.

Bog'lar hudud ko'riki, tarovati hisoblanadi. Ular mevasi, soyasi insoniyat uchun rizq-nasiba, hayot manbaidir. Kombinat jamoasi har yili yangi bog'lar yaratishga katta e'tibor qaratib kelayapti. "Do'stlik" agrofirmasi hududida 8 gektarlik "NKMK 65 yilligi", Navoiy mashinasozlik zavodi hududida "NMZ 60 yilligi", 3-gidrometallurgiya zavodi hududida 5 gektarlik "NKMK 65 yilligi" kabi bog'lar barpo etilgani fikrimiz isboti. Nurota tumanida joylashgan "Pistali" koni va 6-gidrometallurgiya zavodi hududida barpo etilgan 65,5 gektarlik bog' va "yashil belbog'"larga asos solingani xayri tashabbuslardan biri bo'ldi. Hachar yo'li bilan bog'ga 41 ming tupdan ortiq daraxt ko'chatlari, shuningdek, joriy yilning bahor mavsumida 24 ming tup buta nihollari ekildi.

Ayni paytda ekilgan har bir nihol agrotekhnik talablar asosida parvarishlanmoqda. Bu "yashil belbog'"lar "Umid bilan suqilgan tayoq, bir kun berar meva-yu yaproq" ta'biriga ko'ra, Yoxud hademay bo'y ko'rsatib, hududlarga o'ziga chiroq, tarovat bag'ishlaydi. Ko'rkam bog'zor, yashil makonga aylanadi. Yozning jazirama kunlarida o'tgan-keganlar ular soyasida birpas tin olib, ekanlar haqqiga duolar qilishsa, ajabmas!

Bu yilgi bahor ancha seryog'in keldi. Yuqori namlik va quyoshning zarrin tafiti ko'chatlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ular bundan quvvat olib, ko'kka bo'y cho'zmoqda. Nihollarni sug'orish eng tejamkor usul – tomchilatib sug'orish orqali amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, bo'linmalarimiz joylashgan Qizilqum kengliklari, Nurota tog' tizmalari, dasht-adirliklarning iqlimi, tuproq xususiyati har xil. Misol uchun, Qizilqumning yozi issiq-garimsel, qishi esa izzig'irin va qah-raton. Bu hudud sharoitiga mos nihol ekilmasa, ko'chatlar tabiat inijliklariga dosh berolmasligi tabiiy. Buning uchun eng avval hududlar tuproq tahlili va iqlim sharoiti o'rganilib, shunga mos saksosuv, qayrag'och, tol, tut, tuya, chinni gujum, sosna, olma, nok, gilos, olcha va boshqa ko'chatlar ekildi. Ular barchasi pasportlashtirilib, yashilmakon. eco "Yashil makon" elektron platformasiga kiritildi. Yangidan tashkil etilgan ish o'rinlariga dehqonchilik, bog'dorchilik hadisini olgan tajribali bog'bonlar ishga olinmoqda.

Gullar, gulzorlar tarovati, ifori inson qalbiga o'ziga zavq bag'ishlashiga hech e'tibor berganmasiz? Kombinat jamoasi borliqqa chiroq, konchilarga yaxshi kayfiyat bag'ishlash maqsadida, bo'linmalarni gulzorlarga aylantirishga alohida e'tibor qaratgan. Ayni kunlarda 64 kilogramm rayhon urug'i xarid qilinib, ularni ekish ishlari yakunlandi.

Bundan tashqari, ko'chatlar ekilgan maydonlar oraliq qadalgan sabzavot va poliz ekinlari yaxshi o'sayapti. Ulardan olingan hosil ishchi-xodimlarga yetkazib beriladi.

Kombinat jamoasining xayrli tashabbuslaridan yana biri korxonada yoshlari har yili "Orol taqdiri – ke-

lajak avlod taqdiri!" shiori ostida Qo'raqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq shahridan 80 kilometr uzoqlikda joylashgan Orol dengizining qurigan tubida saksosuv ko'chatlarini o'tqazish aksiyasida faol ishtirok etib kelayotganidir. Yaqinda 100 nafar yoshlarimiz ushbu olis hududga borib, umummilliy loyiha doirasida saksosuv ekish ishlari amalga oshirib kelishdi.

OLIS HUDUDDA KO'KLAM TAROVATI

Uchquduq viloyat markazidan 300 kilometr uzoqda, Qizilqum sahrosi bag'rida joylashgan. Konchilar maskani davlatimiz e'tibori va kombinat ko'magida yildan-yilga eng obod, havas qilsa arziqlik manzilga aylanib bormoqda. Bunday ko'rkamlikni konchilar o'z qo'li bilan yaratib, hududni gullab-yashnatishga katta hissa qo'shmoqda.

Aslida, bu yerda yashash, ishlash, nihol o'stirish, bog' yaratishning o'zi katta jasorat va qahramonlikdir. Buni bu manzilda istiqomat qilayotganlar yaxshi biladi. Shu bois, yozning issiq garimse-li, qish izzig'irini, qum-barxanlar ko'ch-kisi, cho'lining murakkab sharoiti, tabiat inijliklariga chidab, shukronalik bilan umrguzaronlik qilayotganlar irodasi, matonatiga tasannolar aytisa arziydi.

Uchquduqliklar yashayotgan o'z maskanini yaxshi ko'radi. Bu manzilin gullab-yashnatish, bog'-rog'ga aylantirish, mehr bilan nihol o'stirish ularning orzu-maqsadi. Erta bahordan o'z manzillarini obod qilish istagida belni mahkam bog'lab, yangi nihollar, gullar o'tqazadi. Buning natijasida hududda bog'-rog'lar borgan sari kengayib bora-

yor. Bu yilgi bahor mavsumida konchilar ko'chat ekishni yana birinchilardan bo'lib boshlab berdi. Ular ishtirokida 86 ming tupdan ortiq manzarali va mevali daraxt ko'chatlari, butalar ekildi. Ayni paytda qadalgan nihollar obi-tobida parvarishlanmoqda.

Ayniqsa, bo'linmalarni "yashil belbog'", "yashil qoplama", ya'ni, himoya devorlari bilan o'rash, cho'l iqlimiga mos manzarali daraxt, saksosuv va buta ko'chatlarini ko'paytirish, manzillarni toza-ozoda saqlash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish o'ziga xos an'ana hisoblanadi. Uchquduqliklar bu ezgu ishga aslo befarq emas. Shu bois, Uchquduq borgan sari yashnab, yashil qiyofaga kirib bormoqda. Bugun hudud jamolini ko'rib, dilingiz yayraydi, yurt odamlarining yaratuvchanlik yo'lidagi ishlariga havasingiz keladi...

BIR KELIB-KETING QO'RG'ONIMIZGA!

Janubiy kon boshqarmasi bo'linmalari Qo'shrabot, G'allaorol va Nurobod tumanlari dashtu adirliklarida joylashgan. Bugun kombinatda ishlab chiqarilayotgan oltinning sezilarli ulushi mazkur boshqarma hissasiga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda 4-gidrometallurgiya zavodi, kon va shaxtalar, turli ishlab chiqarish tarmoqlari, shu bilan birga, zamonaviy infratuzilmaga ega Nurobod va Marjonbuloq shaharlari, Zarkent qo'rg'onida obodonlashtirish yo'liga katta ishlar qilingani chinakam bunyodkorlik namunasini ko'radi.

Davomi 3-betda

■ Xabarlar

SEX ZAVOD SIFATIDA FAOLIYAT BOSHLADI

Markaziy kon boshqarmasining yetakchi bo'linmalaridan biri – Markaziy ta'mirlash-mexanika sexi joriy yilning 1-may kundan Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodi sifatida faoliyat boshladi.

O'n oltila uchastka, byuro va xizmatlardan tarkib topgan va qariyb 600 nafar ishchi-xodim mehnat qilayotgan zavodda texnologik uskunalarni ta'mirlash, ehtiyot qismlar va metall konstruksiyalarni tayyorlash, ta'mirlash-montaj ishlari olib borilayapti. 2023-yilda 181 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan zavodning faoliyat ko'lami qanchalik keng ekanligidan darak beradi.

Zavod faoliyatida mahalliyashtirish dasturi muhim o'rin tutadi. Yangi mahsulotlar turlarini o'zlashtirish hisobiga ishlab chiqarish quvvati yildan-yilga oshib borayapti. Shu bois sex yirik zavodga aylandi. Bugungi kunda ming turdan ortiq mahalliyashtirilgan, 3 ming turdan ziyod import o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Joriy yilda zavodimiz jamoasi mahsulot ishlab chiqarish hajmini 200 milliard so'mga yetkazishni rejalashtirgan, - deydi Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodi direktori Yuldosh G'aniyev.

Ta'kidlash joizki, Navoiy kon-metallurgiya kombinati ijtimoiy mas'uliyatni zimmasiga olib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yangi korxonalar, qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish, aholini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Misol uchun, 2021-yilda Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumanining "Sarimov" mahallasida Markaziy ta'mirlash-mexanika sexi tarkibida 40 ta yangi ish o'ringa ega payvandlash-mexanika uchastkasi tashkil etilgan. Ayni damda ushbu uchastkada mehnat qilayotgan 90 kafar ishchi-xodimlarning asosiy qismi mahalliy aholi vakillaridir. Ular bu yerda ish boshlashdan oldin kombinatning Zarafshon shahridagi O'quv markazida uch oylik o'quv dasturi bo'yicha kasb sirlarini o'rganib, Markaziy ta'mirlash-mexanika sexida amaliyot o'tashgan.

Kelgusida mazkur zavodda ish ko'lami yanada kengayishi ishlab chiqarish hajmining oshishi hamda mahalliyashtirilgan, import o'rni bosuvchi mahsulotlar turlarining ko'payishiga xizmat qiladi.

POYTXAT SAN'ATSEVARLARI HUZURIDA

"Qizilqum javohirlari" konsert dasturlari namoyish etildi

3-4-may kunlari Toshkent shahridagi O'zbekiston kasaba uyushmalari saroyida "NKMK" AJ ma'muriyati va Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan "NKMK jamg'armasi" DM madaniyat muassasalarining ijodiy jamoalari ishtirokida "Qizilqum javohirlari" deb nomlangan konsert dasturlari o'tkazildi.

3-may kuni bo'lib o'tgan konsert oldidan "NKMK" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori Quvondiq Sanaqulov, O'zbekiston xalq artisti Yodgor Sa'diyev, taniqli olim, falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermuhamedovalar so'zga chiqib, madaniyat muassasalarining vakillari va konsert ishtirokchilariga samimiy tabriklarini bildirishdi.

Konsertlarda Navoiy va Zarafshon, Uchquduq va Zafarobod, Nurobod va Zarkent shahar va qo'rg'onlaridagi "Farhod" madaniyat saroyi, "Oltin vodi", "Uchquduq", "Nurobod", "Konchi" madaniyat uylarida faoliyat ko'rsatayotgan badiiy jamoalar, xushovoz xonandalar, klassik va zamonaviy qo'shiq ijrochilarining chiqishlari poytaxt san'atsevarlariga behad manzur bo'ldi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

■ 19-may – O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni

YANGI DOVONLAR SARI

Shimoliy kon boshqarmasi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining yirik bo'linmalaridan biri bo'lib, bu yerda ishlab chiqarilayotgan qimmatbaho metallar mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qilmoqda. Qizilqum bag'ridagi bu korxonaning zamonaviy texnologiyalarga asoslangan barcha bo'linmalarida ish bir zum ham to'xtamaydi. Ishchi-xodimlarning faoliyati belgilangan reja asosida kecha-yu kunduz bir maromda davom etmoqda. Ana shu mehnat tufayli kon boshqarmasi jamoasi kasb bayramini yaxshi natijalar bilan qarshi olyapti.



Har bir sohada investitsion loyihalar alohida ahamiyat kasb etadi hamda ishlab chiqarish ko'lamining kengayishiga imkon beradi. "Kokpatas va Dovgiztov oltin konlarida ma'dan qazib olish (III-navbati)" investitsion loyihasi nafaqat kon boshqarmamiz, balki kombinat rivojiga qaratilgan istiqbolli loyihalardan biridir. Ayni paytda ushbu loyiha asosida 3-gidrometallurgiya zavodida 2 ta yangi tegirmon bloki barpo etilmoqda. Ularning foydalanishga topshirilishi bilan tegirmonlar soni 8 taga yetadi. Zavod quvvatini yanada oshirish, ma'danni qayta ishlash hajmini 10 million tonnaga yetkazish rejalashtirilayapti.

Eng quvonchlisi, joriy yilda yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini 12 foizga ko'paytirish mo'ljallanmoqda. Yaqin kelajakda flotatsiya, shuningdek, biooksidlash, filtrlash, quritish va kuydi-

rish sexlarini kengaytirish ham ko'zda tutilgan. Loyiha tannarxini arzonlashtirish maqsadida, tegirmon bloklarini barpo etishga mo'ljallangan aksariyat qurilish materiallari, jihoz va ehtiyot qismlar o'zimizda mahalliyashtirilib, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Navoiy mashinasozlik zavodi va bizning bo'linmalarda ishlab chiqarilmoqda.

Shimoliy kon boshqarmasida joriy yilning to'rt oylik yakunlari jamoa bor imkoniyatlarini ishga solayotganidan dalolat berayapti. Jumladan, tog' jinsini qazib olish hajmi kon ishlarini rivojlantirish rejasiga nisbatan 108,2 foizga bajarildi va o'tgan yilning joriy davriga nisbatan 111 foiz o'sish sur'ati ta'minlandi. Burg'ilash ishlari rejasi 108, sulfidli ma'dan qazib olish rejasi 118,7, 3-gidrometallurgiya zavodiga sulfidli ma'dan yuklash rejasi 105,3 foizga uddalandi.

Ochiq kon ishlarida iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sayotganligi va rejalar ado etilayotganligi ishchi-xodimlar ish sharoitlarining yaxshilanishiga imkon yaratyapti.

"Sharqiy" va "Dovgiztov" konlari dispetcherlik xonalari zamon talabiga mos ravishda zamonaviy kompyuterlar va interaktiv doskalar o'rnatildi. "Dovgiztov" konida davriy uzluksiz texnologiyasi majmuasi magistral konveyeri 2,2 kilometr ga uzaytirildi. Natijada og'ir yuk tashuvchi avtoag'dargichlarning dizel yoqilg'isi, moy mahsulotlari, avtoshina va boshqa turdagi tovar-moddiy boyliklar ortiqcha sarfining oldi olinmoqda. "Adjibugut" konida san'at maydoni infratuzilmasi, xodimlar uchun dam olish xonalari va 5-sonli AyOQSh ishga tushirildi. Hozirgi kunda "Dovgiztov" karyerini kengaytirish ishlari olib borilmoqda. "Boshqarma konlarini texnik va texnologik qayta jihozlash" ishchi loyihasi doirasida kovshining hajmi 7 kubometr bo'lgan 2 dona zamonaviy "Liebherr 9100" rusumli gidravlik ekskavatorlari keltirildi.

Kon boshqarmasi istiqbolini ko'zlab, "Sharqiy" ochiq usulda qazib olish koni va Avtomobil transporti boshqarmasida "VSG" kompaniyasi hamkorligida kon ishlarining ish unumdorligini va samaradorligini oshirish bo'yicha qator yo'nalishlar bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Yaqin kunlarda "Sharqiy" konida ishchi-xodimlar uchun 250 o'rinni oshxona foydalanishga topshiriladi. "Mag'ribkon" konini o'zlashtirish loyihasi doirasida yuk ko'tarish quvvati 90 tonna bo'lgan 3 dona va yuk ko'tarish quvvati 55 tonna bo'lgan 1 dona avtoag'dargich olinishi ko'zda tutilgan. Markaziy-moddiy texnika bazasida Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan 100 tonnalik avtomobil tarozilarini o'rnatish yuzasidan qurilish-montaj ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ishlarga xolisona baho berib, ishonch bilan aytish mumkin, bunday bunyodkorliklarga haqiqiy professionallar, o'z kasbining ustalari, ko'zlangan maqsadlarga yetishish yo'lida jipslashgan jamoa va malakali mutaxassislar qodir. Ahil jamoamiz bilan mamlakatimiz hukumati tomonidan qo'yilgan vazifalarni bajarishga qat'iy kirishganmiz. Kombinatining kelajagi ulug'vor, istiqbollar uchun poydevori mustahkam. Biz esa har kungi sharaflig mehnatimiz bilan nurli istiqbolni tobora yaqinlashtirib borayapmiz.

Naim AMONOV,
Shimoliy kon boshqarmasi direktori.

Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni arafasida Janubiy kon boshqarmasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida, bahorning yomg'irli kunlarida Zarkent qo'rg'oniga yo'l oldik. Kon boshqarmasi direktori Tolliboy Yuldashev yosh bo'lishiga qaramay, mehnatda toblangan, o'z ishiga reja va ilm bilan yondashadigan shijoatli konchilardan. Direktor bilan korxonada olib borilayotgan iqtisodiy ishlar, o'zgarishlar xususida suhbatlashdik.

xodimlar va harbiy xizmatchilar uchun 32 ta ko'pqavatli uy, 3 ta yotoqxona, akvapark, 200 o'rinni "Konchi" madaniyat uyi, "Yoshlar" sport majmuasi va kafesi, mehmonxona, 50 o'rinni ishchilar oshxonasi, 14-sonli harbiylashtirilgan yong'in xavfsizligi qismi binosi va shunga o'xshash boshqa inshootlar qad rostladi. Shuningdek, 44 ta yosh oilaga mo'ljallangan ko'pqavatli uy ham o'z egalari qazib olingan. Ana shu raqamlarning o'zi Janubiy kon

ijtimoiy himoyalash, ularning madaniy-ommaviy horiq olishlarini ta'minlash, soha xodimlari o'rtasida turizmni rivojlantirish maqsadida "O'zbekiston bo'yab sayohat qil!" shiori ostida tarixiy maskanlar va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar uyushtirish, mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Yaqinda Zarkent qo'rg'onida 2 ta ko'pqavatli turarjoy foydalanishga

FAXR VA MAS'ULIYATNI BIRLASHTIRGAN SOHA

Kon boshqarmasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonidagi yangilanishlar va ularning hududni ijtimoiy rivojlantirishdagi o'rini siz nimalarda ko'rayasiz?

- Birinchidan, xodimlarimiz kayfiyatida. Ilgari ular bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lganimizda muammolari haqida gapirardi. Hozir esa murojaatlarning ko'p qismi taklif va mulohazalardan iborat.

Ikkinchidan, moddiy-texnik bazamizning yangi, zamon talablariga javob beradigan texnika va uskunalar bilan jihozlanayotganida. Masalan, kon boshqarmasi konlarida 2020-2025-yillarga mo'ljallangan tog'-kon transporti uskunalarini texnik va texnologik qayta jihozlash loyihasi doirasida shu o'ringa o'zida 2 dona "PAUS MINCA-18A" rusumli yer osti avtobusi va "Sandvik DI" burg'ilash uskunasi xarid qilindi. Yil yakuni bo'yicha "Zarmitan oltin-ruda zonasi konlari negizida kon-ruda kompleksining quyi sathlarini (0.00m. gacha) o'zlashtirish" investitsion loyihasi doirasida yuk ko'tarish quvvati 20 tonna bo'lgan "MT-2010" rusumli yer osti o'ziyurur mashinalari va "2S4x2.3" markali shaxta ko'tarish qurilmasi, "O'rtaqlik" konining +660 m va +720 m sathlarini zaxiralari o'chish va qazib olish ishchi loyihalari bo'yicha "MAN CLA 31.280 6x4" rusumli avtomobil furgoni, "ST-2G" va "ST-7" rusumli o'zi yuklab - yetkazish texnikalari hamda "Sandvik TH315" va "MT-431B" markali yer osti o'ziyurur mashinalari xarid qilindi. Shuningdek, "G'ujumsoy" konining +540 m sathidagi, "Charmitan" konining +540 metr sath janubiy-sharqiy qismi zaxiralari o'chish va qazib olish borasida ham "ST-2G" va "ST-7" markali o'zi yuklab-yetkazish texnikalari va yuk ko'tarish qobiliyati 28 tonnagacha bo'lgan "MT-2010" va "MT-431B" rusumli yer osti o'ziyurur mashinalari, "FG7S" rusumli yer osti avtogreyderi hamda "PM" va "Sandvik TH315" rusumli yer osti ta-

shish avtomobillari, g'ildirakli buldozer va "Simba Junior" rusumli burg'ilash uskunalarini sotib olinmoqda. Umumiy olganda, joriy yilda jami 35 dona kon-shaxta transport vositalari sotib olinadi.

Uchinchidan, bizning kon-metallurgiya xodimlarimiz o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashayotganida. Masalan, o'tgan 2023-yilda korxonamizda kon massasini qazib olish rejasini 100,8 foizga, yer osti kon lahimlarini qazib o'tkazish rejasini 102,3 foizga, ma'dan qazish ishlari 103 foizga, uni qayta ishlash esa 105,7 foizga, yarim tayyor holda oltin ishlab chiqarish rejasini 102,5 foizga bajarildi. Joriy yilning birinchi choragida ham oldimizga qo'yilgan rejalar uddalandi.

Zarmitan va Marjonbuloq ma'danlarga boy zamin. 4-gidrometallurgiya zavodi uzluksiz ishlashini ta'minlab borish konlar zaxirasi, zamonaviy texnikalar va texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, xodimlarimiz malakasiga bog'liq. Qiymati 138 million AQSh dollari bo'lgan "Zarmitan" oltin-ruda zonasi konlari negizida kon-ruda kompleksining quyi sathlarini (0.00 m. gacha) o'zlashtirish" yirik investitsion loyihasi doirasida Chexiya Respublikasining "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilgan uch yillik samarali mehnat mahsuli sifatida O'zbekiston konchilik sanoati tarixida ilk bor shaxta diametri 6,5 metr va chuqurligi ming metrga yetkazildi. Buning uchun tik va texnik jihatdan nihoyatda murakkab hisoblangan qazish ishlari olib borildi. "Skipli" shaxta stvoli barpo etilishi har yili o'rtacha 1,4 million tonna ma'danni yer yuzasigacha chiqarish va 90 ta yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Zarkent shaharchasida 875 ta xonadon mavjud bo'lib, ularda 4 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. 2008-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda hukumat va kombinat rahbariyati tomonidan shaharchada ishchi-



boshqarmasining Qo'shrabot va G'alalor tumanii ijtimoiy-iqtisodiyotidagi o'rini ko'rsatib turibdi.

- Tolliboy Norboyevich, ayni paytdagi bunyodkorlik ishlariga ham to'xtalib o'tsangiz.

- Yaqinda "Zarmitan" konining 250 kishiga mo'ljallangan maishiy binosi yangidan qad rostladi va zamonaviy jihozlari bilan ta'minlandi. Ayni paytda 80 o'rinni oshxona qurilishi va ularni kerakli jihozlari bilan ta'minlash bilan sanoat maydonidagi obyektlarini uzluksiz suv bilan ta'minlash uchun yer osti suvini bir joyga to'plovchi maxsus inshoot barpo etish, shuningdek, "Marjonbuloq" koni portlovchi materiallar omborida ta'mirlash ishlari olib borilayapti.

Bahor faslida "Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida Janubiy kon boshqarmasi tomonidan Zarkent shaharchasi hududida qariyb 500 dona mevali va manzarali daraxt ko'chhatlari hamda 10 mingga yaqin butasimon o'simlik qalamchalari o'tqazildi. Korxonamizda qariyb 6 ming nafar xodim ishlaydi. Sir emas, ishchi-xodimlarimizning aksariyati yer osti qazishma ishlari bilan band. Xodimlarni

topshirilib, uning samarasi o'laroq, 64 nafar ishchi-xodimimiz uyli bo'lishadi. 32 xonadonli 2 ta ko'pqavatli uyniing barpo etilishi nafaqat ishchi-xodimlarimizni xursand etadi, balki ko'zni ham quvonтиради. Chunki, bir necha yil avval bu maskan ochiq maydon edi.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati bosh direktori Quvondiq Sanaqulov tashabbusi bilan qo'rg'onida istirohat bog'i barpo etish rejalashtirilmoqda. Bog'da barcha yoshdagi odamlarning horiq chiqarishlari uchun hamma imkoniyatlar yaratiladi. Soya-salqin oromgoh zarkentliklarning sevimli maskaniga aylandi.

Dunyoda kasblar ko'p! Kunda ishlash, toshloq yo'llar, chang-to'zon va tong otmaydigan yer qarida mineral toshlarni maydalash - bu har kim ham uddalay oladigan mashg'ulot emas. Konchi va metallurklarimiz o'z kasblarining mashaqqatu mas'uliyatini yaxshi anglaydilar va hamisha shunga munosib javob berishga intilib mehnat qilmoqdalar.

Suhbatni Mansur HUSANOV yozib oldi.

Mamlakatimizda konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni an'anaviy tarzda nishonlanib kelinayotganligi respublikamiz rahbariyati tomonidan soha xodimlari mehnati e'tirof etilganligining yorqin namunasi sifatida har birimizga cheksiz quvonch va faxr-iftixor bag'ishlamoqda. Biz bunday e'tiborga amaliy ishlarimiz bilan javob berib, kasb bayramini doimo yutuqlar bilan munosib kutib olamiz. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishni boshladik. Barcha sohalardagi keng ko'lamli islohotlar o'z natijalarini berayotganligiga guvohmiz. Islohotlarning markazida inson qadri, uning huquqlari, manfaat, baxt-u saodati va turmush farovonligi turibdi.

IQTISODIY SAMARADORLIK YO'LIDA



Navoiy kon-metallurgiya kombinati dunyoda sohaning eng yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. Kombinatiniz jamoaning mehnati, sa'y-harakatlari bilan jahon standartlariga mos, sifatli, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish evaziga o'zining mustahkam o'rni-ga ega bo'lib kelmoqda. Har jihatdan mamlakatimizda yetakchi bo'lgan kombinatda ishlashning o'zi shon-sharaf va bundan har birimiz faxrlanamiz.

"Qizilqum" kon boshqarmasida oltin, temir kuporosi, suyuq natriy silikati kabi iqtisodiyot va sanoatimiz rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Hozirgi kunda kon boshqarmamiz tomonidan "Rohat", "Daykali", "Gorniy", "Qoraqo'ton", "Pistali" oltin konlarini o'zlashtirish bo'yicha ochiq va yer osti kon ishlari olib borilmoqda. Kon ishlarida Epiroc, Hitachi, Komatsu, PAUS hamda Aramine kabi jahonga mashhur kompaniyalarda ishlab chiqarilgan eng zamonaviy texnika va og'ir yuk ko'taruvchi avtotransport vositalaridan foydalanilmoqda. Ochiq va yer osti usulida qazib olingan oltin ma'danlar 1-va 6-gidrometallurgiya zavodlarimizda alohida texnologik sxemalar bo'yicha qayta ishlamoqda. Kombinatiniz va jamoamizning fidoyi, malakali muhandis va tajribali mutaxassislari, ishchi xodimlarining tinimsiz mehnatlari tufayli o'tgan yili "Pistali" koni va 6-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi.

Ishonch bilan aytalimizki, mamlakatimiz kon-metallurgiya sanoatida yangi yuksalish davri boshlandi. Foydalanishga topshirilayotgan zamonaviy korxonalarimizni loyihalashtirish, eng murakkab asbob-uskunalar, masalan, gidrometallurgiya zavodlari uchun tegirmonlar, gravitatsion boyitish uskunalarini, sorbsiyali tanlab eritish sig'imlari, quyiltirgichlar va nasos agregatlari o'zimizda ishlab chiqarilayotganligi barchamizning yutug'imizdir.

Kon boshqarmamizda 3,7 ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilar mehnat qilishyapti. Oxirgi ikki yilda ishga qabul qilingan turli kasb egalarning aksariyati Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti va boshqa oliygohlarni tugatib kelgan yosh mutaxassislardir. Eng muhimi, ayni paytda konlar, zamonaviy zavod va ishlab chiqarish uchastkalarini o'zimizning yoshlarimiz boshqarayaptilar.

Kasb bayramimizni har doimgidek e'tirof etishga arziri natijalar bilan qarshi olayapmiz. Ahil jamoamizning fidokorona mehnati tufayli barcha ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha rejalar bajarilmoqda. Jumladan, joriy yilning o'tgan to'rt oyida ma'dan qazib olish rejasini - 102,1 foizga, ma'danni qayta ishlash ko'rsatkichi - 103,9 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish rejasini - 104,7 foizga bajarildi. Investitsiya dasturi doirasida 25,6 mln. dollar mablag' o'zlashtirilib, mahsulot tannarxini kamaytirish dasturi 114,4 foizga bajarildi va qariyb 9,9 milliard so'mlik mablag' tejaldi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kon boshqarmamizda doimiy ishlar olib borilmoqda. 2019 yilda 2-texnologik sexda to'rtinchi yanchish tegirmoni o'rnatilib, ishga tushirilishi ma'danlarni qayta ishlash unumdorligini soatiga 210 tonnagacha oshirish imkonini berdi. "Qoraqo'ton" konining murakkab tarkibli (uglerodli va sulfidli) ma'danlarini qayta ishlash texnologik sxemasini takomillashtirish natijasida "M-6" tegirmon blokining ishlab chiqarish unumdorligi soatiga 17 tonnadan 23 tonnagacha ko'pay-

tirildi, flotokonsentrat chiqishi 1,5 foizdan 4,5 foizgacha oshirilib, bunda iqtisodiy samara 8,7 milliard so'mdan ko'proqni tashkil qilyapti. 1-texnologik sexda asosiy sorbsiyali sianlash zarjirining rekonstruksiya qilinishi tufayli flotatsiya boyitmasini qayta ishlash ikki baravar, flotatsiya boyitmasidan oltinini ajratib olish 95,5 foizgacha oshirilmogda. 2-sonli texnologik sex 10 dona regeneratsiya kolonnalari rekonstruksiya qilinib, qo'shimcha sorbsion pachuklar sifatida foydalanishga topshirildi. Natijada sorbsiya jarayonining vaqtini oshirish hisobiga metall ajratib olishni bir foizga ko'paytirishga erishildi.

Bundan tashqari 1-sonli texnologik sexning magnit fraksiya qayta ishlash bo'linmasini rekonstruksiya qilish va kengaytirish ishlarni amalga oshirish hisobiga joriy yilda kon boshqarmamizda temir kuporosi ishlab chiqarish ko'rsatkichini 736 tonnadan 1612 tonnagacha oshirish mo'ljallanmoqda. So'nngi besh yillikni taqqoslaganda kon boshqarmamizda ilmiy-tadqiqot islohiyatiga sarf qilinadigan xarajatlari 1,6 milliard so'mdan 5,9 milliard so'mga, iqtisodiy samara esa 18,9 milliarddan 49,2 milliard so'mga oshdi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish unumdorligi va mahsulot sifatini oshirishga, ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga olib kelyapti.

Korxonamiz yoshlari 2023 yilda "NKMK" AJning "Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi" tanloviga eshtirok etib, umumjamoa hisobida kombinat bo'linmalari o'rtasida faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgani tashiga loyiqdir. Kon boshqarmamizda nafaqat asosiy ishlab chiqarishni kengaytirish, balki ijtimoiy sohani rivojlantirishga ham yetarli e'tibor berilayapti. Korxonamizda ijtimoiy siyosat ishchi-xizmatchilarga munosib mehnat va yashash sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan. Masofadagi konlarda ishlaydigan ishchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, bo'linmalarda obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish ishlari doimiy ravishda olib borilmoqda. "Pistali" koni va 6-gidrometallurgiya zavodi hududidagi maydonlarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'tgan yilning kuzi va joriy yilning bahor mavsumlarida 23,3 ming dona manzarali va 103,5 ming tup butasimon daraxt ko'chhatlari o'tqazildi. Bundan tashqari, "Pistali" koni negizida smena va vaxta asosida ishlaydigan ishchi-xodimlar uchun 500 o'rinni oshirishga barpo etildi. Ishchi-xodimlar dam olishi uchun zamonaviy tipdagi xonalar zarur maishiy texnikalar bilan jihozlangan. Ishchi-xodimlar uchun shaharcha maydonida 100 kishilik oshxona ishga tushirildi. Ularning ishdan bo'sh paytlarida sport bilan shug'ullanishlari uchun sport majmuasi qurilib tik-kazildi. Majmua zarur sport anjomlari bilan jihozlandi. Bundan tashqari, shaharchada mini sport maydoni qurilmogda va yaqin kunlarda ishga tushirildi.

Erishilayotgan marralarda jamoamiz har bir a'zoning munosib hissasi bor. Ishlab chiqarish reja-topshiriqlarini muntazam bajarish, iqtisodiy samaradorlikni ko'zlab texnologik jarayonlarni yanada takomillashtirish, yangi konlarni o'chish va zamonaviy texnikalarni qo'llash kelajakda kon boshqarmamiz jamoasini yangi cho'qqilarga erishishiga keng yo'l ochib beradi.

Avaxxon EZOXONOV,
"Qizilqum" kon boshqarmasi direktori.

■ Из подразделений комбината

Акционерное общество «Навоийский горно-металлургический комбинат» добывает не только значительную часть золота в Узбекистане, но и входит в десятку крупнейших компаний мира по производству золота высшей пробы. Неоспоримый вклад в обеспечение максимального извлечения благородного металла из руды вносит технологическая лаборатория по золоту в составе Центральной научно-исследовательской лаборатории комбината (ЦНИЛ).

ЛАБОРАТОРНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ – ВАЖНАЯ ЧАСТЬ ЗОЛОДОБЫЧИ



Она создана в 1962 году, в год образования ЦНИЛ. Ее задачи многогранны - обеспечение своевременного, качественного и безопасного проведения научно-исследовательских работ (НИР) и оказание научно-технических услуг в соответствии с утвержденными планами, программами и другими нормативно-методическими документами по технологии золота; проведение НИР как самостоятельно, так и совместно с подразделениями комбината, научно-исследовательскими институтами и организациями Узбекистана и стран СНГ; разработка комплексной технологии переработки золото- и серебросодержащих руд; внедрение результатов исследований в производство; выполнение комплексных работ по инновационной деятельности лаборатории; поиски путей переработки отходов золотоизвлекательных и других производств.

Технологическая лаборатория также проводит исследования по определению физических и сорбционных свойств ионов, флюк-

логическим отделом АО «НГМК» разработан регламент окисленных серебросодержащих руд месторождения «Нукракон». Ведутся углубленные работы по выбору переработки смешанных и сульфидных золото- и серебросодержащих руд. Лучшие результаты по попутному извлечению золота и серебра из сульфидных руд получены при флотационно-сорбционной схеме.

Технологической лабораторией на постоянной основе ведутся ис-

следования по повышению коэффициента извлечения металла, согласно программам, утвержденным руководством АО «НГМК» и планам НИР. Среди них исследования по повышению коэффициента извлечения металла из руд месторождений «Кокпатас» и «Даугызтау» на ГМЗ-3; сульфидных руд участков «Западная Перемычка» и «Танга Западная» месторождения «Марджанбулак» в золотоизвлекательном цехе МЗИЦ и руд месторождений «Зармитан» на ГМЗ-4 Южного РУ; руд месторождений «Мурунтау» и «Балпантау», планируемых для переработки на ГМЗ-2; руд месторождения «Ауминзо-Амантай» для переработки на ГМЗ-5; руд месторождений «Каракутан», «Аристантау» и «Пистали» для переработки на ГМЗ-1 и ГМЗ-6; по повышению уровня извлечения из хвостов Цеха кучного выщелачивания золота на ГМЗ-7.

На основании проведенных технологических исследований подразделениям комбината выдаются рекомендации и оказывается методическая помощь. Кроме того, технологическая лаборатория по золоту успешно решает возникающие проблемные вопросы со всеми подразделениями НГМК, связанные со сменной сырьевой базы и вводом в производство новых технологий.

За последние десять лет объемы технологических исследований, проводимых в данной лаборатории, увеличились в разы, так как возросла переработка действующих гидрометаллургических заводов - ГМЗ-1, ГМЗ-2, ГМЗ-3, ГМЗ-4, а также в НГМК введены в эксплуатацию новые предприятия - ГМЗ-5, ГМЗ-6 и ГМЗ-7.

В связи с этим, значительно улучшилась оснащённость лабораторией технологическим оборудованием.

В частности, получены аналитические веса, pH-метры, кислородомер, ситовый анализатор, флотационные машины, отсадочная машина, концентрационный стол, винтовой сепаратор, две шаровые лабораторные мельницы. Для проведения полупромышленных испытаний получена пилотная установка, позволяющая проводить технологические исследования по гравитационному и флотационному обогащению руд, приближенные к производственным условиям. Так что, в настоящее время в ЦНИЛ создана полноценная технологическая группа обогащения, обеспеченная необходимым оборудованием для проведения гравитационного и флотационного обогащения руд. На данной территории также имеется достаточное количество дробильно-измельчительного оборудования, оборудования для выполнения гранулометрического анализа руд.

На сегодняшний день в технологической лаборатории по золоту ЦНИЛ работают 47 человек, 36 из которых имеют высшее образование. Возглавляет их опытный специалист Одина Мирзаева. Лаборатория разделена на две группы: опытно-технологической группой руководит Гулчехра Кудратова, группой технологических исследований - Нодира Зухурова. Коллектив лаборатории гордится своими опытными работниками, среди которых лаборанты химико-технологических исследований Ольга Дьянова и Ольга Мезенева, аппаратчики по разделению благородных и редкоземельных элементов Шерзод Жабборов, Айбек Куддашев, Элёр Муминов. Подрастают и грамотная смена молодых специалистов - лаборанты химико-технологических исследований Малика Равшанова, Нигина Зухурова, инженер-технолог Юлдуз Хасанова, аппаратчик по разделению благородных и редкоземельных металлов Бобур Рахимов.

В ходе исследований и экспериментов, которые проводятся на базе технологической лаборатории ЦНИЛ, производственники и учёные НГМК получают большое количество информации, которую необходимо анализировать, изучать. Создаваемые здесь новые методы и технологии не только способствуют развитию горно-металлургического производства, но и позволяют шагать в ногу со временем в этой отрасли, давая возможность развитию науки и новых технологий извлечения драгоценного металла, так необходимого для укрепления экономики нашей страны.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Markaziy kon boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligiga

Qizilqum JAVOHIRLAR SANDIG'I

■ Oxiri. Boshlanishi o'tgan sonda

UFQNING ALVON SHAFAG'I ICHRA

Аynı bayram arafasi, ya'ni jonajon kombinatimizning 65 yilligi oldidan Navoiy shahriga yetib kelgan kun.uz muxbirlari bilan "Muruntov" koniga xizmat safariga boradigan bo'lib qoldik. Yo'l-yo'lakay muxbirlar hali bu kon haqida tasavvurga ega emasligi bois qisqacha ma'lumot berishimni so'rab qolisdi. Safar davomida Tomdovning janubiy etagida joylashgan "Muruntov" haqida eshitgan-bilganlarimni shubhatdoshlarimga tushuntira ketdim...

- Masofa uzoq shekilli, - deb xijolatomuz so'radi muxbir Isomiddin Po'latov. - Qayerda joylashgan bu kon?



- Navoiy shahridan 180 kilometr shimolda, Zarafshon shahridan esa 40 kilometr sharqda joylashgan, hali manzil uzoq. Bilasizmi, o'tgan asrning birinchi yarmida o'zbek geologi Ibrohim Hamroboev boshchiligidan olib borilgan qidiruv ishlari "Muruntov" koni joylashgan hududda ulkan oltin zaxirasi borligi o'z tasdiqini topgan. Geologlar tomonidan eng yirik oltin zaxirasiga ega kon sifatida e'tirof etilib, uning zaxirasi 4,5 ming tonnadan ortiq baholangan. Konni o'z ko'zining bilan ko'rib, mutaxassislar bilan suhbatlashganda yanada kengroq tushunchaga ega bo'lasiz, - dedim.

- Ha, albatta. U yerda mehnat qilayotgan ishchilar hayoti ham meni qiziqtirib qo'yd. Ular bilan ham suhbatlashamiz, - dedi muxbirlardan biri.

Biz tushgan mashina Qizilqumning adoqsiz kengliklari uzra yeldek uchib borar, hamrohlarimning ilk taassuroti ham, qiziqishlari ham shu manzilardan boshlanganini sezib turardim. Yo'l-yo'lakay ba'zi-ba'zida tuyalar va otlar uyuri uchrar, cho'lining o'ziga xos bedor tabiatiga guvoh bo'lardim. Mashina oynasidan boqib, uzoqdan haybatli shamol tegirmonlari ko'zga tashlanganidan angladimki, manzilga yaqinlashibmiz.

ISHLAGANDA YURAKDAN ISHLASH KERAK

- "Muruntov" koniga kelish biroz mashaqqat talab qilsada, kishiga o'zgacha zavq berarkan, - deydi yo'lida biroz toliqqan muxbirlar. - Pog'onama-pog'onama yuqorilab borayotgan kon manzarasi, aylanma, pastu baland burilishlardan iborat cho'l yo'li - bularning barchasi ajoyib. - Maxsus korjomalari, xavfsizlik kaskalari kiyib olgan, ish bilan ovvora xodimlar, ularning harakatidagi o'ziga ishonch, qat'iyat e'tiborimni tortdi. Xullas, bu yerda shunchaki yurgan odamni uchratmas ekansiz-a'?

"Muruntov" koni boshlig'i Sherzod Kamolov bizni xushtakulluflik bilan kutib oldi. Bu kongra respublika OAV vakillari bilan har gal kelganimizda mas'ul rahbarlar qimmatli vaqtlarini ayamasdan kerakli ma'lumotlarni taqdim etishi, intervyular olish uchun sharoitlar yaratib berishi yaxshi ma'lum. Faqatgina ish jarayoniga ta'sir etmasak bo'lgani. Yana shuni yaxshi bilamanki, bu yerda vaqtning har bir soniyasi juda qadrlashadi. Sherzod Kamolov bilan suhbatimiz kon tarixidan boshlanib, hozirda qilinayotgan ishlar va istiqboldagi loyihalar bilan davom etdi.

- "Muruntov" konidan shu vaqtgacha 2,2 milliard kubometrdan ziyodroq kon massasi qazib olinganining o'zi dunyodagi eng yirik konlar qatorida ekanligini yorqin ko'rsatib turibdi. Konda bosqichma-bosqich olib borilayotgan qazish ishlarida uning chuqurligiga qarab, asosiy texnologik jarayonlar - burg'lash, portlatish, qazib olish va tashish ishlarida eng yangi zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanilmoqda. Konning bugungi kundagi chuqurligi 650 metrga yetganligini hisobga olsak, bu yerda katta hajmda ish olib borilayotganiga amin bo'lasiz. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish natijasida kon ishlari hajmi yildan-yilga oshirilmoqda. Kon massalarini qazib olish va ularni tashishda, dunyo konchilik sohasining Liebherr, HITACHI, Komatsu, CAT, Explorac, Epiroc, Sandvik kabi yetakchi firma va kompaniyalarining ish unumdorligi yuqori bo'lgan zamonaviy kon texnikalaridan

foydalanilmoqda.

O'z bag'rida behisob boyliklarni yashirib yotgan mahobatli kon jobizasi mehmonlarni ohanrabodek o'ziga tortar, ular bu lahzalarni tinimsiz foto va video lavhalarga muhrlar edi. Xodimlar bizlarni ko'rib chehrasi yorishdi. Yuz-ko'zlaridan suhbatlashishga moyilligi sezilib turardi. Kon boshlig'i bergan ma'lumotlarga qaraganda, ularning bir nechtasi davlat mukofotlari bilan taqdirlanishgan, ustoz maqomiga erishganlardan ekan. Yer q'ridan oltin tarkibli ma'danni qazib olish va uni qayta ishlash zavodiga yetkazib berish og'ir mehnat talab qiladi. Ana shunday mashaqqatli mehnat qilayotganlar, shubhasiz, zamonamiz qahramonlaridir. Bundan zavqlangan ishchilarning shukronaligi cheksiz. Ular peshona teri bilan topilgan halol rizqning gashiti o'z gachaligini, mehnat qilgan inson hech qachon kam bo'lmasligini bot-bot takrorlaydilar.



Aynı paytda konda yiliga 52 million tonnadan ortiq ma'dan qazib olish beshinchi navbati bo'yicha olib borilayotgan ishlar kelgusida yer q'riining 1000 metr va undan ham chuqurrog'idan oltin qazib olish imkonini beradi.

Zohiddin BOBOYEV, ekskavator mashinisti:

- *Kombinatda ishlash nasib etganidan, hayotim va faoliyatim shu qutlug' maskan bilan bog'liqligidan nihoyatda mamnunman. Bizning "G'arbiy" uchastkasida 140 nafardan ortiq kishi mehnat qiladi. Ishlab chiqarish samaradorligida bizning xizmatning o'rnini muhim. Shu boisdan mas'uliyatni his qilgan holda ishlashga harakat qilamiz. 33 yillik faoliyatim davomida yetarli tajriba ortirdim. O'z kasbining ustalari bo'lgan yaxshi insonlar bilan yonma-yon ishladim, ulardan ham yet saboqlarini oldim. Bundan g'ururlanmay bo'ladimi?! Halol mehnatim tufayli obro'-e'tibor topdim, hamkasblarim hurmatiga sazovor bo'ldim. Rahbariyat nazariga tushib, bir necha bor Faxriy yorliqlar egasiga aylandim. 2021-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Mana shunday e'tibor uchun yanada samaraliroq mehnat qilishga, bilganlarimni shogirdlarimga erinmay o'rgatishga harakat qilib kelayapman. Kasbga e'tiqodni shakllantirishning muhim shartlaridan biri bu-e'tibor va rag'bat deb hisoblayman. Rafiqam bilan birga farzandlarimizni tarbiyalab voyaga yetkazdik. 3 nafar shirindan-shakar nabiralirim bor. Hammamizning nonimiz, nomimiz, shonimiz shu dargohdan.*

Eng quvonchlisi shundaki, bugungi kunda kon ishlab chiqarish bo'linma va uchastkalarini asosan izlanuvchan yosh mutaxassislar ham boshqarmoqda.

Dilshod QO'ZIYEV, muhandis-energetik:

- *Har gal ulkan rejalar va orzu-umidlar bilan yangi tongni qarshi olamiz. Ishimiz judayam qiziqarli. Ha, zimmamizdagi mas'uliyat juda katta. Mana shunday nufuzli korxonada ishlashimdan, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotganimdan faxrlanaman. Mehnat kishisi uchun ko'tarinki kayfiyatda korxonasiga yo'l olish, ishdan bo'sh paytda insoniyatini sevimli oilasi bag'rida, farzandlari qurshovida o'tkazish, o'g'il-qizlarini davrning munosib farzandlari qilib tarbiyalash haqiqiy baxt deb hisoblayman. Bir insonga bundan boshqa ne darkor?!*

Ha, konda Qizilqumning beayov cho'llariga qalb qo'rini berib, o'zining bilim va tajribasi, professional malakasi va mahorati bilan turli jabhalarda mehnat qilayotgan bu kabi ishchi-xodimlar talaygina. Mashaqqatli sohada mehnat qilayotgan geolog deysizmi, muhandis yoki kimyogor, iqtisodchi yoki oddiy ishchi-xodimmi - barcha kasbiy mahorati, qat'iyati, mehnatsevarlik fazilatlarini bilan ko'pchilikka o'mak bo'lmoqda. Mo'jizalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u fidoyi insonlarning astoydil intilishlari ortidan bunyod etiladi.

Ishlab chiqarish qizg'in "Muruntov" konidan qaytayotib, bu yerda mehnat qilayotgan keksa-yo yoshning harakatlaridagi ishonch va qat'iyat sabablarini anglab yetganday bo'ldik. Quyosh qizarib botayotgan mahal qirlarning tarovati o'zgacha go'zallik kasb etgandi. "Muruntov" koni va uning mehnatsevar jamoasi timsolida bag'rida behisob tabiiy boyliklarni - oltin va kumush, Mendeleev davriy jadvalidagi deyarli barcha elementlarni mujassam etgan saxovatli zaminda qorako'zlar orzu-umidlarini, kelajakning beqiyos imkoniyatlarini ro'yogba chiqarishmoqda.

Dildora KARIMOVA.

■ Yashil makon

QIZILQUM KENGLIKLARIDA

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Bugun dov-daraxtlarga burkangan, tog'-adirlarga tutash Zarkent qo'rg'oniga tashrif buyurgan har qanday kishining bu maskanga havasi kelishi tabiiy. Chunki, zamonaviy uy-joylar, ravon ko'chalar, bir-biridan chiroyli ijtimoiy obyektlar, yo'l cheti va bo'sh maydonlarga ekilgan nihollar, gul-rayhonlar tarovati inson qalbiga o'zgacha zavq beradi. Bu, qalbidan yaratuvchanlik ishtiyoqi yonib turgan ahil jamoaning birdamligi, hudud obodligi yo'lida olib borayotgan xayrli ishlarining mevasidir.

So'nggi to'rt yilda ekilgan 40 ming tupga yaqin mevali va manzarali daraxtlar, buta va gul ko'chatlari konchilar maskanlari ko'rkini tubdan o'zgartirib yubordi. Mevali daraxtlar esa ilk hosil berib, el ma'murchiligini ta'minlamoqda. Hozirda har bir nihol nazoratga olinib, agrotexnik talablar asosida parvarishlanayotgani quvonarlidir.

Bu yil dashtu adirlarimizga ko'klam o'zgacha keldi. Yog'ingarchilik mo'l bo'ldi. Butun olam yashilik, go'zallik, lola-yu qizg'aldoqlar bo'y-basti, iforidan yashnab keldi. Bundan unumli foydalanilgan zarkentliklar yashash joylari, hovli-yu tomorqalariga nihollar qadab, ko'chat va gullar o'tqazdi. Bahor nafasi, uyg'onish simfoniyasi aks etgan pallada Zarkent yanada ko'rkam qiyofaga kirdi.

Tabiat yangidan chiroy o'chdi. Sahro yanada go'zallashib, o't-maysalar, saksovullar ko'zni quvnatadi. Yovshanu shuvoq ishi dimoqlarni qitiqlaydi. Olam va odam uyg'unmoqda. Shunday pallada hech kimda tinim yo'q. Mehnat jamoalari ham fallashgan. Ular safida Markaziy kon boshqarmasining ahil, bunyodkor jamoasi ham bor. Ko'chat, gul ekish ishlarini tugatib, nihollarni parvarishlashga kirishilgan. Ko'klamgi yumushlar davrida zarafshonlik konchilar 74,6 ming tupdan ziyod har xil navli, iqlimga chidamli qayrag'och, yasen, chinni gujum, tol, tut, Suriya atirguli va boshqa nihollarni o'tqazdi. Xalqimizda: "Izlagan imkon topar", degan gap bor. Bu zamin odamlari nihoyatda izlanuvchan, intiluvchan. Shu boisdan, dehqonchilik bobida qo'shimcha imkoniyatlarni izlab topmoqda. Bunga, "Auminzoz-Amantoy" konida amalga oshirilgan ishlar isbot. Jamoa tashabbusi bilan 2021 yilda mo'jazzina isisqixona tashkil etilgan edi. Ayni paytda bu yerda 47 tup limon, 6 tup mandarin ko'chatlari parvarishlanib, ichki ehtiyoj uchun 18 ming tup har xil turdagi gul nihollari yetishtirilmoqda va hududlarga o'tqazilmoqda. Bu ham mablag'ni iqtisod qilishning bir yo'li.



Kon jamoasi bu yilgi bahor mavsumida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 3 gektar yerga 600 tup mevali va manzarali ko'chat o'tqazishga erishdi. Shuningdek, hududga qovun-tarvuz, qovoq, har xil ziravorlar urug'lari ham ekildi.

HAR BIR ISHDA PESHQADAM

Yashil maydonlar, bog'lar, eng muhimi, har bir bo'linmadagi obodlik va orastalik inson qalbiga ishchanlik kayfiyatini baxsh etadi. Bugungi kunda katta maydonda joylashgan Navoiy mashinasozlik zavodiga nisbatan shunday iliq iboralarni keltirish mumkin. Bugun zavod hududiga kirib borar ekansiz, did bilan ekilgan anvoyi gullar, yashillikka burkangan bog'lar, soya-salqin xiyobonlar, mo'jazzina dam olish joylarini ko'rib, jamoa ishiga javsingiz keladi. Har gal guvoh bo'lamiz: bog'bonlar doimo nihollar parvarishi, ularga ishlav berish bilan ovvora. Buning natijasida ular soat sayin ko'kka bo'y cho'zib, rivoj topib bormoqda. Ahil jamoa bu yilgi bahor mavsumida dov-daraxtlar sonini yanada oshirishga erishdi. Korxon hududiga 10,1 ming tup har xil ko'chatlar ekildi.

Qilingan bu xayrli ishlar, barpo etilgan bog'lar, ihotazorlar ertaga yashil devor sifatida insonlarni cho'l shamollari, chang-g'uborlardan saqlashi, hududlarga ko'rkamlik bag'ishlashi, fidoyi konchilarni o'z hosildan bahramand etishi tabiiy. Shu o'rinda, Qahramon shoirimiz Erkin Vohidovning quyidagi satrlari yodimizga keladi:

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada, Bu nihol nomini Yaxshilik ata. Niholning yoniga bir gul ekib qo'y, U g'ulning ismini Go'zallik deb qo'y.

Gulu niholingga baxsh etib hayot, Suv ber va bu suvga Mehr deb ot qo'y. Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st, Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

Kombinatning ulkan jamoasi bunday xayrli ishlarini amalga oshirishda faol ishtirok etib, jannatmakon yurtimizni obod etish yo'lida davom etaveradi...

Begzod SAIDOV, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Korporativ ijtimoiy mas'uliyatli bo'limi boshlig'i.

■ 9-may – Xotira va qadrlash kuni

Toshkentda otgan birinchi tong yomg'ir bilan boshlandi. "Yaxshi yil bahoridan ma'lum", deganlaridek, shu yil bahor seryog'in keldi. Yog'in-sochidan bizning cho'llar ham yashillikka burkandi.

SAYOHAT ASNOSIDA...

Mehmonxonadagi nonushtadan so'ng, Toshkent sayri boshlandi. Yoshlarning istaklariga ko'ra, avval Toshkent city mallga o'tlandik. Bu mahobatli binolarni tomosha qilarkanman, hayratga tushdim, o'ta noziklik, yuksak arxitektura ilmi va aql-zakovatga yondashib barpo etilgan bu ulkan kompleksni ta'rif etishim uchun hayratlarini suratga muhrlay oladigan zo'r musavvir yo' dizayner-rassom bo'lmog'im kerak! Qancha hayratlanmay, ruhim sokinlik istar, asarlarda o'qiganim – qahramonlarimni sog'inardim. Ayni paytda meni Toshkent city malldan G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi tomon tortayotgan ohanrabo tarix – Vatanning, millatning boshidan o'tgan o'tmish meni chorlamoqda edi.

Havo iliq, yomg'iri biram yoqimli, yomg'irpo'shning keragi yo'q. Boqqa yaqinlasharkanmiz, radiokarnayda Ikkinchi jahon urushi yillaridagi kuy-qi-shiqlar yangraydi.

Majmuaga qadam qo'yishim bilan meni ajib mahzunlik qamrab oldi. Mas-kanning naqadar muqaddasligini his etib, qadamlarim og'irlashar, mash'um urush musibat solgan onalarning faryodi eshitilar edi go'yo... Urush yillari bo-lasining, jigirlarining, bosh egasining



omon qaytishi uchun borini bergan, jafolar ko'rgan, qaro mehnati bilan xuftonini bomdodga ulagan millatimiz qahramonlarining ruhi kezib yurgandek misol! Maydonda turgan – hujumlardan omon qaytgan samolyotlar, urush o'chog'ida kuymagan tanklar, mard, tanti, sodda,

beg'ubor o'zbek yigitlarini olov maydonlariga olib ketgan poyezdlar bilan so'zsiz suhbatlashaman. Kompleksni shunchaki sayr etib bo'lmas, bu yerda o'tkazgan har bir lahzangizda millatning front va front ortidagi azob-uqubatlarini

jasorat", Zulfiya aya Zokirova va uning urushdan qaytmagan besh farzandi hamda beva qolgan to'rt kelini xotirasiga bag'ishlangan "Matonat madhiyasi" monumentlari, millatimizning qonli jang-gohlardagi mardligi, front ortidagi azo-bu uqubati, mehnati-yu tortgan zahmati va fidoyiligidan so'zlovchi tarixiy-badiiy ekspozitsiyalar menga oqsoqoldek, Duma choldek, Robiya va qora ammadek insoniylikning eng yuksak pog'o-nasidan-da yuqori ko'tarilgan oqko'ngil toshkentliklarni eslatdi. Mohir quruvchilar, usta va me'morlar, rassom va hay-kaltaroshlar tomonidan urush alami va dorilomon kunlar baxtini his etib, xuddi tirikdek yaratilgan ekspozitsiyalarga termulaman, etimgandan sizib kirgan, boshimdag'i ro'molimni ho'l-ho'l qilib sirg'altirgan, ko'zyoshimga qo'shilib yog'ayotgan yomg'irni-da sezmayman, minglab bahodirlarini tuproqqa bergan sabri alp o'zbek onalari, qaytgan-qaytmagan yigitlar, matonatli, bag'rikeng, mushfiq millatimizning o'sha mash'um yillardagi mehnati ortidan chekkan zahmatlari uchun yig'layman... Ikkinchi jahon urushiga jonning ozig'ini, yerining ozig'ini bergani evaziga G'alabaga yetgan xalqimizning urush yillarini o'zida jo etgan majmuaning bunyod etilishidek savobli ishda bosh-qosh bo'lganlaru mehnati singganlardan minnatdorona ravishda, bu yerga yana kelishni dilimga tugib bog'dan chiqdim. Har bir yurt-doshimiz kelishi zarur bo'lgan G'alaba bog'i yodgorlik majmuasidagi tarix o'y-lari ila borarkanman, bugungi ne'matlar uchun qalban shukrona aytardim...

Nilufar MUYNINOVA,
SHKB mutaxassisi.

■ 18-may – Xalqaro muzeylar kuni

MUZEYLAR – TARIX KO'ZGUSI

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixi" muzeyi kombinat bosh direktori Q.Sanaqulov tashabbusi bilan 2010-yil "Farhod" madaniyat saroyi binosining 2-qavatida tashkil qilingan bo'lib, 2013-yilda davlat muzeyi maqomiga ega bo'lgan. Muzeyda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ko'p yillik tarixi, kombinat tuzilmasi, bo'limlari, uning bugungi kundagi qizg'in faoliyati haqida boy eksponatlar va qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Muzeyda kombinat rivojida jonbozlik ko'rsatib mehnat qilayotgan insonlarning fotosuratlarini, ular haqida hikoya qiluvchi slaydlar, filmlar ham borki, bularning har biri – ulkan tarix.



Muzey zallarida mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilingan. Ekspozitsiya tabiiy qazilmalar, o'simliklar va hayvonot dunyosi namunalardan boshlanadi. Qizilqum cho'llarida yuz million yillar oldin yashagan o'rda-kubrun dinozavrning katta boldir suyagi, tosh daraxt namunalari va Uchquduq tumanidagi tosh o'rmon fotosuratlarini birinchi zalga joylashtirilgan bo'lib, u odamlarda katta qiziqish uyg'otishi tabiiy. Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniyning o'zbek tiliga tarjima qilinib, kombinat homiyligida nashr etilgan "Qimmat-baho javohirlar haqida bilimlar kitobi" muzeyga o'z-gacha ko'rk berib turibdi.

Muzeyning multimedia zalida kombinat haqidagi hujjatli film va slaydlarni ko'rish mumkin. Har haftada yangilanib turiladigan sensor ekranli axborot do'konchasida kombinat tarixi va bugungi faoliyati haqida barcha ma'lumotlar mujassam. Qizilqum sahrasining o'zlashtirilishi, gigant korxonaning barpo etilishi va rivojlanishi, ilk konchilik, burg'ilash va qurilish asbob-uskunalari, texnikalar oq-qora fotosuratlarida aks ettirilgan. Ushbu zaldagi suratlardan madaniyat va sport muassasalarining to'garaklarida, kutubxonalarida, yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, dam olish maskanlari, sanatoriya-profilaktoriyalarda amalga oshirilayotgan ishlardan to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Muzeyning uchinchi zalida kombinatga qarashli 6 ta gidrometallurgiya zavodlarining maketlari, Shimoliy, Markaziy, Janubiy, "Qizilqum" kon boshqarmalari, Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi, Navoiy mashinasozlik zavodi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi, Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika Markaziy laboratoriyasi, "Agama" tikuvchilik firmasi, "Do'stlik" agrofirma faoliyatlarini haqida fotosuratlar mavjud. Zal markaziga chuqurlik

650 metri tashkil etadigan "Muruntov" koni maketi joylashtirilgan.

Muzey o'z faoliyatini Navoiy shahri va viloyatida mavjud bo'lgan oliy o'quv yurti, o'rta-maxsus ta'lim dargohlari, o'rta umumiy ta'lim maktablari, o'quv markazlari, sanatoriya-profilaktoriya, harbiy qism kabi qator muassasalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda yil boshida tuzilgan tashriflar yillik ish rejasiga asosan amalga oshirib kelmoqda.

Muzeyda multimedia zalining mavjudligi va uning zamonaviy texnik jihozlarning yosh avlodning ma'naviy olamini boyitish yo'lida ko'pgina tadbirlar olib borilishiga imkon yaratadi. Kombinatsiyalar yetakchilari Kengashi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Ayollar Kengashi, Kompyuter xizmati, O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi a'zolari, Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi bilan hamkorlikda ko'pgina ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy-badiiy kechalar o'tkazilib borilmoqda.

Bugungi kunda muzeyga jonkuyar ma'naviyat targ'ibotchisi Dilrabo Raxmatova rahbarlik qilmoqda. Uning kombinat tizimidagi asosiy ishlab chiqarish obyektlarida muhandis-texnik xodim sifatida qariyb 25 yillik mehnat faoliyati jarayonida orttirgan boy tajribasi, avvalambor, pedagogik mahorati muzeyda ish olib borishida juda qo'l kelayapti. Dilrabo Zuvayevna mehmonlarga kombinat tarixi va bugungi kundagi faoliyati haqida o'z-gacha iftixor bilan hikoya qilib beradi.

- Bahovuddin Naqshband "Dil ba yoru, dast ba kor", - ya'ni, "Qalbing Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin", - deganlar o'z ta'limotlarida. Inson o'z mehnat qilayotgan korxonani va bajarayotgan ishini sevmog'i lozim, shundagina uning ishida unum, qalbida quvonch va hayotida baraka bo'ladi. Men esa shu shaharda tug'il-

lib o'sganim, hayotim dunyoga mashhur ishlab chiqarish korxonasi bilan chambarchas bog'liqligidan g'ururlanaman, - deydi D.Rahmatova. U Yaratinganning nazari tushgan yurtimiz, qimmatbaho nodir ma'danlarimiz, ularni ko'paytiruvchi, kuch-qudratimiz oshishiga xizmat qiluvchi insonlarimiz haqida nutqini she'rlar bilan bezab, to'lib-toshib so'zlashdan charchamaydi.

Muzey Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bilan hamkorlikda ish olib boradi. Universitet guruhlarini asnosida kombinat tarixi, bugungi kundagi faoliyati haqida davra suhbatlari va taqdimotlar o'tkaziladi. Taqdimotlar shunchaki tadbir emas, kombinat an'analari, halol mehnat qadri haqidagi sermazzun suhbatlar bilan bo'lajak konchilar ularni kutayotgan so'qmoq yo'llarga ruhan tayyorlab boriladi. Zero, yurt kelajagi, kombinat taqdiri bugungi yoshlar qo'lida.

Muzey bilan tanishib, moziy-xona bekasining suhbatlarini tinglab, ma'naviyat gulshanida sayr qilganday bo'lamiz. Muzeyda taassurotlar kitobi ham bo'lib, uning sahifalarida muzeyga tashrif buyurgan Amerika, Germaniya, Chexiya kabi mamlakatlardan elchilar, nufuzli mehmonlar, davlat arboblari, olimlar, fuzalolar, o'quvchi va talaba yoshlarning muzeydan olgan taassurotlari bitilgan.

"Ushbu mo'jaz muzey tashkilotchilariga samimiy minnatdorchiqimni bildiraman. Chunki kombinatning tarixi, bosib o'tgan yo'li, xodim va mutaxassislarining mashaqqatli mehnati bilan tanishish, eng avvalo yoshlarimiz uchun ibrat maktabini o'taydi. Men kombinat rahbariyati va uning ko'p mingli jamoasiga sog'lik, ulkan muvaffaqiyatlar tilayman. Kombinatomiz bundan keyin ham rivojlanaversin".

Tanzila NORBAYEVA,
Oliy Majlis Senati raisi.

"Men ushbu muzeyga kelib juda lol qoldim. Muzey ajoyib estetik did bilan jihozlanibdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bir namunasi bo'lib, ko'p yillar davomida O'zbekistonimizga xizmat qiladi, deb o'ylayman. Muzey rahbarining hikoyalari esa bir umr qalbmida qoladi".

Baxtiyor XASANOV,
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor.

"Uncha katta bo'lmagan maydonda betakror ekspozitsiya yaratgan holda muzey tashkilotchilari madaniy-tarixiy va ma'naviy-ma'rifiy markazini barpo qilishgan. Bu yerda kombinat tarixini o'rganish, maketlarni ko'rish orqali cho'l hududining og'ir sharoitlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar va uning bo'linmalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish mumkin".

Aleksandr CHERNIX,
Belorus davlat texnologiya universiteti professori.

Yana bir sahifada notiqlik san'ati darg'alari kombinat muzeyini "Ma'naviyat va ma'rifat manzilgohi", mehmonlardan bir guruhi muzey rahbarining so'z aytmoq san'atidan ta'sirlanishib, bu dargohni "inson ko'ngilgohi", deya ta'riflashibdi. Biz esa muzeydan olgan taassurotlarimizga tayyanib, har ikkala ta'rif ham juda topib aytilganligini e'tirof etmoqchimiz.

A.AXMEDOVA.

■ "101" xabar qiladi

AVTOMOBILINGIZNI YONG'INDAN ASRANG!

Transportdagi yong'in kutilmaganda sodir bo'lishi va juda tez rivojlanishi bilan xavflidir. Bunday vaqtda nima qilish kerak? Aslida, avtomobillarda yong'in kelib chiqishining sabablari juda ko'p. Amaliyotda eng ko'p uchraydiganlari bu – elektr simlarining qisqa tutashuvi hamda yonilg'ining sizib chiqishidir. Benzin va dizelda harakatlanuvchi avtomobillarda yonilg'i sizib chiqishini darhol payqash qiyin. Agar dvigatel sovuq holatda bo'lsa, yonilg'i hidini salonda ham sezish mumkin. Ammo, dvigatel qizib turgan holda yonilg'i juda tez bug'lanadi va uni sezish mushkul. Benzin bug'larini alanganlanish xususiyatiga ega, bu esa juda kichik uchqun ham yong'inga sabab bo'lishini anglatadi.



Siqilgan gaz balloni o'rnatilgan avtomobillarda, asosan, gaz ballonlaridagi texnik nosozlik, yorilish, reduktor va gaz trubkasining ishdan chiqishi oqibatida ko'p miqdorda yonuvchi gaz tashqariga otilib chiqadi. Bu o'z navbatida yonish va portlash xavfini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, ayrim hollarda salonda chekish, yengil alanganlanuvchi moddalarni tashishda e'tiborsizlik va boshqaruv oqibatida ham yong'in sodir bo'lishi mumkin.

Transport vositasida yong'in sodir bo'lganda:

har qanday holda ham vahimaga tushmang;

avtomobilni yo'lning chetki qismiga, imkon boricha odamlar va binolardan uzoqroq joyda to'xtating;

dvigatelni o'chiring, "qo'l tormozi"ni ishlatib va "101" raqami orqali yong'in-qutqaruv qismiga xabar qiling;

yong'in o'chog'ini va yong'in ko'lamini baholashga harakat qiling;

agar yong'in o'chog'i yonilg'i baki yoki gaz ballonida bo'lsa, undan uzoqlashib, bunday yong'in o'chirishga urinish xavfli. Qutqaruvchilar yetib kelguncha yong'inning boshqa avtomobillar va binolarga o'tib ketishining oldini olish va insonlar xavfsizligini ta'minlash lozim.

Agar yong'in o'chog'i avtomobilning dvigatel qismida bo'lsa, uni mustaqil o'chirishga harakat qilish mumkin. Kapot qizigan bo'lishi va uni ochishda kuyib qolish ehtimoli bor. Bundan tashqari, kapotning

ochilishi ichkariga kislorod kirib, yong'inni yanada avj olishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, yong'in o'chirgichni shay holatga keltirib, mato bilan kapotni ochish tavsiya etiladi.

Yong'in o'chirgichni olovga to'g'rilab ishlatish, boshqa yo'lovchi va haydovchilarni ham yordamga chaqirish lozim. Yong'inni o'chirishda tuproq, qor, ariq suvlaridan ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari yong'in joyini kigiz, odayal, brezent, kurtka va boshqa havo o'tkazmaydigan mato bilan yopish mumkin. Faqat mato zich yopilishi kerak. Aks holda yong'in yanada kuchayadi.

Yong'in yuzaga kelishiga uchta element – yonuvchi modda (yonilg'i, jihozlar va b.q.), yondiruvchi manba (elektr toki, yuqori harorat kabi) va kislorod sabab bo'lishini nazarda tutadigan bo'lsak, ushbu "yong'in uchburchagi"ning barcha elementlari avtomobillarda mavjud va kichik nosozlik ham yong'inga sabab bo'lishi hech gap emas. Shu sababli, transport vositalarini texnik soz holatda boshqarish, harakat davomida hushyorlikni yo'qotmaslik, avtomobilda birlamchi yong'in o'chirish vositalari bo'lishini ta'minlash lozim.

S.ARSLONOV,
"Markaz" KB OYOXTTEB P va NB inspektori, kapitan.

F.SAIDOV,
kichik inspektor.

■ Sport

MEDALLAR SHODASI

Joriy yilning aprel oyida Toshkent shahrida U-18 va undan kattalar o'rtasida suzish bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasi bo'lib o'tdi.



Mazkur masobaqada "So'g'diyona" jismoniy tarbiya va sport majmuasining "Oltin suv" Navoiy suzish markazi jamoasi munosib ishtirok etib, 9 ta oltin, 25 ta

kumush, 9 ta bronza medallarni qo'lga kiritdi.

Sohiba QILICHOVA,
"Sug'diyona" JTSK direktori.